

Urumchi aeroportida yo'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va bortga chiqarish vaqtlariga o'zgartirishlar kiritildi

2019 26 Oktabr

Hurmatli yo'lovchilar!

"Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi sizga 2019- yil 1-noyabrdan Urumchi aeroportida qatnovlar uchun yo'lovchilarni ro'yxatga olish reysning jo'nash vaqtidan 50 daqiqa oldin, yo'lovchilarni samolyotga chiqarish esa parvoz vaqtidan 20 daqiqa oldin tugatilishini ma'lum qiladi.

Eslatib o'tamiz, "Uzbekistan Airways" Urumchiga haftasiga ikki marta seshanba va juma kunlari muntazam yo'lovchi qatnovlarini amalga oshiradi.